KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Isroilov Samandar
Toshkent Davlat Yuridika Universiteti
“Korrupsiyaga qarshi kurashish va Komplayens nazorat”
yo‘nalishi magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20253177

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining nazariy-huquqiy va institutsional asoslari kompleks tahlil qilingan. Maqolada Robert Klitgaardning korrupsiya formulasi ($S=M+D-A$), S.Xantingtonning modernizatsiya nazariyasi va “Prinsipal-Agent-Kliyent” modeli kabi fundamental yondashuvlar yoritilgan. Maqolada O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashishda “Ko‘p funksiyali model”dan “Universal model”ga o‘tish evolyutsiyasini va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining huquqiy maqomini xalqaro standartlar (BMT Konvensiyasi, Jakarta tamoyillari) asosida tadqiq etilgan. Maqolada davlat organlarining huquqiy maqomi, mustaqillik kafolatlari va funksional vazifalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: korrupsiya, Robert Klitgaard formulasi, institutsional model, diskretsion vakolat, hisobdorlik, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, huquqiy maqom, komplayens-nazorat, universal model, mustaqillik.

Аннотация:В данной статье проведен комплексный анализ теоретико-правовых и институциональных основ системы противодействия коррупции. В исследовании освещены фундаментальные подходы, такие как формула коррупции Роберта Клитгарда ($S=M+D-A$), теория модернизации С. Хантингтона и модель «Принципал-Агент-Клиент». Автор исследует эволюцию перехода Узбекистана от «многофункциональной модели» к «универсальной модели» борьбы с коррупцией, а также правовой статус Агентства по противодействию коррупции на основе международных стандартов (Конвенция ООН, Джакартские принципы). В статье научно обоснованы правовой статус государственных органов, гарантии независимости и функциональные задачи в сфере противодействия коррупции.
Ключевые слова:коррупция, формула Роберта Клитгарда, институциональная модель, дискреционные полномочия, подотчетность, Агентство по противодействию коррупции, правовой статус, комплаенс-контроль, универсальная модель, независимость.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical, legal, and institutional foundations of the anti-corruption system. The study highlights fundamental approaches such as Robert Klitgaard’s corruption formula ($C=M+D-A$), S. Huntington’s modernization theory, and the "Principal-Agent-Client" model. The author examines the evolution of Uzbekistan's transition from a "multi-functional model" to a "universal model" of fighting corruption, alongside the legal status of the Anti-Corruption Agency based on international standards (UN Convention, Jakarta Principles). The article scientifically substantiates the legal status of state bodies, independence guarantees, and functional tasks in the sphere of anti-corruption.
Keywords: corruption, Robert Klitgaard formula, institutional model, discretionary power, accountability, Anti-Corruption Agency, legal status, compliance control, universal model, independence.

Kirish.

Korrupsiya murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida davlat boshqaruvi va ijtimoiy adolat tamoyillariga tahdid solib kelgan. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan anglash uchun, avvalo, uning etimologiyasi va evolyutsiyasiga e'tibor qaratish lozim. Lotincha "corruptio" atamasi nafaqat pora evaziga sotilishni, balki tizimning ichidan yemirilishini , ma'naviy buzilishini anglatadi.

Korrupsiya so'ziga turli davlatlarda turlicha tarif beriladi ,lekin umum etirof etilgan tushuncha mavjud emas.

Ushbu sohada asosiy hujjat bo'lgan – **BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasida** ham tarif berilmagan. Lekin ayrim xalqaro tashkilotlar korrupsiya atamasiga tarif berishga harakat qilishgan. **Jahon Banki** –"Korrupsiya-davlat hokimyatini shaxsiy manfat uchun suistemol qilish", **Transparency international** esa "Korrupsiya – bu mansabdor shaxsga (shu jumladan xususiy sektor mansabdorlari) yuklatilgan vakolatlarni shaxsiy boyish uchun suistemol qilishdir [1]" deb tarif berib o'tilgan. Korrupsiyaning lug'aviy manosi "Korruptsiya (lotincha: corrumpō – aynish, poraga sotilish) – mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot.[2]" degan ma'noni anglatadi.

Korrupsiya kelib chiqish tarixi uzoq davrga ya'ni ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Qadim davrlarda turli toifa vakillari kohinlar va harbiy rahbarlarga turli sovg'alar berish orqali imtiyozlarga ega bo'lishga harakat qilishgan, ayniqsa qadimgi Rim davlatida kohinlar diniy rasim-rusumlar bajarish orqali xalqdan pul yoki mol-mulk olganligi ham korrupsiyaviy holatlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ilm-fanda korrupsiyaga yondashuvlar diversifikatsiyalashgan. Xususan, taniqli siyosatshunos Samyuel Xantington korrupsiyani "siyosiy modernizatsiya jarayonining mahsuli" sifatida baholab , uni yangi iqtisodiy boylik va siyosiy hokimiyat o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi deb hisoblaydi.[3] Bu yondashuv korrupsiyaning nafaqat huquqiy, balki tizimli ijtimoiy muammo ekanligini ko'rsatadi.

Asosiy qism.

Korrupsiyani institutsional jihatdan tadqiq etishda iqtisodchi olim Robert Klitgaardning hissasi beqiyos. Uning qarashlari institutsional modellarni shakllantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.[4] Klitgaardning fikricha , agar davlat amaldori qaror qabul qilishda mutlaq vakolatga (diskretsiya) ega bo'lsa , raqobat mavjud bo'lmasa (monopoliya) va jamoatchilik nazorati (hisobdorlik) past bo'lsa , korrupsiya muqarrardir.

Garvard universiteti professori R.Klitgaardning "Korrupsiyani nazorat qilish" (Controlling Corruption,1988)nomli asarida korrupsiyaning vujudga kelishini iqtisodiy va boshqaruv tizimidagi nuqsonlar bilan bog'laydi hamda uni quyidagi formula orqali ifodalaydi:

$S=M+D-A$

Bu yerda:

S (Corruption) — korrupsiya;

M (Monopoly) — qaror qabul qilish yoki xizmat ko'rsatishdagi monopoliya;

D (Discretion) — qaror qabul qilishda keng vakolatlar yoki tanlov ixtiyoriyligi;

[1] https://praktikum.proacademy.uz/listener/courses/145047/periods/159812/topics/825630
[2] https://uz.wikipedia.org/wiki/Korrupsiya
[3] Huntington, S. P. (1968). Political Order in Changing Societies. Yale University Press. – P. 59-71.
[4] Klitgaard, R. (1988). Controlling Corruption. University of California Press. – P. 75.

A (Accountability) — hisobdorlik va nazorat mexanizmlari.

Klitgaard fikricha , korrupsiyaning birinchi omili — bu muayyan davlat xizmati yoki resursi ustidan faqat bir idora yoki shaxsning monopol huquqidir . Agar fuqaro yoki tadbirkor biron-bir hujjatni olish yoki ruxsat berish jarayonida muqobil yo‘lga ega bo‘lmasa (ya’ni raqobat yo‘q bo‘lsa), davlat xizmatchisida “bozor kuchi ” paydo bo‘ladi.

Diskretsion vakolatlar (tanlov ixtiyoriyligi) omili amaldorning qonun doirasida bo‘lsa - da, lekin o‘z xohishiga ko‘ra qaror qabul qilish erkinligini anglatadi. “ Diskretsiya” — bu qonunchilikda “ mumkin”, “berilishi mumkin ”, “rad etilishi mumkin” kabi noaniq va keng talqin qilinuvchi normalarning mavjudligidir.

Hisobdorlikning yetishmasligif ormuladagi eng muhim element bo‘lib, u korrupsiyaga to‘siq bo‘luvchi asosiy omil hisoblanadi. Agar davlat organi ustidan jamoatchilik , parlament yoki yuqori turuvchi idoralar tomonidan qat’iy nazorat bo‘lmasa , *M* va *D* omillarining salbiy ta’siri keskin ortadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi — bu aynan “Accountability” (hisobdorlik) elementini kuchaytirishga qaratilgan institutsional yechimdir.

Shuningdek, nazariy metodologiyada “Prinsipal-Agent-Kliyent” modeli markaziy o‘rin tutadi. Ushbu model doirasida Syuzan Rou z-Akkerman ta’kidlaydiki , “davlat xizmatchilari (agentlar) o‘zlariga berilgan vakolatlarni uchinchi shaxslar (kliyentlar) manfaati yo‘lida ishlatib , buning evaziga davlat (prinsipal) manfaatlariga zid ravishda haq oladilar”.[5] Bu yerda metodologik yechim sifatida “agent” va “kliyent” o‘rtasidagi asimmetrik axborotni kamaytirish va “agent” ustidan nazoratni kuchaytirish taklif etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional tuzilishi davlatning siyosiy irodasi va huquqiy madaniyatini aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda, xususan , K. Kuax va A. Doig kabi tadqiqotchilarning ishlarida institutsional modellar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi[6]:

1. Singapur (universal) modeli - korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tergov va profilaktika vakolatlariga ega yagona mustaqil organ (CPIB — Corrupt Practices Investigation Bureau). Bu modelning muvaffaqiyati “siyosiy mustaqillik va mutlaq betaraflik” tamoyiliga tayanishidadir.

2. Gonkong (uch tomonlama) modeli - ICAC (Independent Commission Against rruption) organi orqali amalga oshiriladigan strategiya bo‘lib , u uchta yo‘nalishni birlashtiradi: tergov, profilaktika va jamiyatda korrupsiyaga toqatsizlik muhitini yaratish.

3. Ko‘p funksiyali (tarqoq) model - AQSH va Yevropaning ko‘plab davlatlarida qo‘llaniladi. Bunda korrupsiya bilan nafaqat maxsus organlar, balki FQB (FBI), prokuratura va turli sohaviy inspeksiyalar shug‘ullanadi.

O‘zbekistonda korrupsiyaning institutsional asoslarini o‘rganishda yuridik fanlar doktori , professor G. Abdumajidov, H. Boboyev va A. Choriyev kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega. Professor G‘. Abdumajidov ta’kidlaganidek, “ korrupsiya nafaqat jinoyat, balki davlat boshqaruvi apparatining samaradorligini pasaytiruvchi va qonun ustuvorligini yemiruvchi ijtimoiy deformatsiyadir”.[7]

Zamonaviy bosqichda tadqiqotchi F.Yuldashev korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini isloh qilishda “komplayens-nazorat” (compliance control) tizimining roliga alohida urg‘u beradi. Uning fikricha, institutsional model nafaqat jazolash, balki davlat organlari ichida

[5] Rose-Ackerman, S. (1999). Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. Cambridge University Press. – P. 9-25.

[6] Quah, J. S. T. (2011). Curbing Corruption in Asian Countries: An Impossible Dream? Emerald Group Publishing. – P. 110-125.

[7] Абдумажидов Ғ.А. Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашишнинг ҳуқуқий асослари. – Т.: Адолат, 2010. – 48-б.

korrupsion xavf-xatarlarni oldindan aniqlovchi va to‘suvchi ichki mexanizmlarni o‘z ichiga olishi lozim.[8]

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslari evolyutsiyasini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, mamlakat so‘nggi yillarda tizimli islohotlar natijasida korrupsiyaga qarshi kurashishning Universal (ixtisoslashgan) modeliga o‘tdi. Bu jarayon 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli Prezident Farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilishi bilan yakuniga yetdi.

2020 yilga qadar O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish funksiyalari tarqoq holda bo‘lib, u asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar (Prokuratura, DXX, IIV) tomonidan amalga oshirilgan. Bu “Ko‘p funksiyali model” hisoblanib, unda asosiy e’tibor jinoyat sodir etilganidan keyingi jazolash choralariga qaratilgan edi. Biroq, R. Klitgaard nazariyasiga ko‘ra, faqat jazolash orqali tizimdagi monopoliya (M) va diskretsiyani (D) kamaytirib bo‘lmaydi. Buning uchun profilaktika va tizimli tahlil bilan shug‘ullanuvchi mustaqil "markaz" zarur edi.

Jahon amaliyotida (Singapurning CPIB, Gonkongning ICAC modellari) universal model uchta asosiy ustunga tayanadi, ular O‘zbekiston Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi faoliyatida ham o‘z aksini topgan:

1. Mustaqillik va Prezidentga hisobdorlik - Agentlikning ijroiya hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda, bevosita Prezidentga bo‘ysunishi va Parlament oldida hisobdorligi uning siyosiy irodasini mustahkamlay di. Bu Klitgaard formulasidagi “A” (Accountability — Hisobdorlik) elementining eng yuqori nuqtasidir.
2. Profilaktik va metodologik funksiya - Agentlik nafaqat korrupsiyani aniqlaydi, balki davlat organlarida "Komplayens-nazorat" (compliance control) tizimini joriy etish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va qonunchilikni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish bilan shug‘ullanadi. Bu tizimdagi noaniq vakolatlarni (D) cheklashga xizmat qiladi.
3. Jamoatchilik bilan aloqa va ta’lim - universal modelning talabi sifatida, Agentlik jamiyatda "murosasizlik" muhitini shakllantirish va ochiqlikni ta’minlash (Open Data) mexanizmiga mas’ul etib belgilandi.

O‘zbekiston tanlagan “Universal model” — BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi tavsiyalariga to‘liq mos keladi. Biroq, ushbu modelning to‘liq ishlashi uchun Agentlikning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan muvofiqlashtiruvchi rolini yanada kuchaytirish va mahalliy davlat hokimiyati organlari ustidan monitoring mexanizmlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq .

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki , korrupsiyaga qarshi kurashishning yagona va ideal modeli mavjud emas . Biroq , institutsional tuzilma " mustaqillik " va " hisobdorlik " muvozanatiga qurilishi shart. O‘zbekiston sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining evolyutsiyasi " tarqoq model"dan " markazlashgan-ixtisoslashgan model" (Agentlik tashkil etilishi) sari rivojlanib borayotgani kuzatilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining huquqiy maqomi va funksiyalari

Yuridik fanda davlat organining huquqiy maqomi deganda , uning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni, boshqa subyektlar bilan bo‘lgan munosabatlaridagi huquqiy holati tushuniladi . Korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki , ularning maqomi nafaqat ijro etuvchi, balki nazorat qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi xarakter kasb etadi.

Mahalliy va xorijiy olimlar huquqiy maqom tushunchasiga turlicha yondashadi. S.S. Alekseyevning ta’kidlashicha, huquqiy maqom — bu huquq subyektining qonun bilan

[8] Юлдашев Ф. Коррупцияга қарши курашишнинг институционал асосларини такомиллаштириш: Монография. – Т.: ТДЮУ, 2021. – 112-б.

mustahkamlangan umumiy holati bo‘lib, u davlat mexanizmidagi barcha aloqalarni belgilab beradi.[9]

Professor G‘.Abdumajidov davlat organining maqomini tahlil qilar ekan, uning asosini davlat hokimiyatining muayyan sohasidagi vakolatlari va mas’uliyati tashkil etishini qayd etadi.[10]

Korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining huquqiy maqomi quyidagi beshta muhim elementdan iborat:

- maqsad va vazifalar ya’ni o rgan nima uchun tashkil etilgan (masalan, korrupsiyaning oldini olish yoki jinoyatchilikka qarshi kurashish).
- kompyetensiya (vakolatlar doirasi) bu organga berilgan huquq va majburiyatlar yig‘indisi . Bu yerda organning «diskretsion vakolatlari » va «imperativ vazifalari » o‘rtasidagi muvozanat muhim.
- tashkiliy tuzilma - organning iyerarxik tuzilishi , hududiy bo‘linmalari va rahbariyatni tayinlash tartibi.
- javobgarlik esa organ va uning mansabdor shaxslari o‘z faoliyati uchun kimning oldida (Prezident, Parlament, Xalq) hisobdor ekanligi.
- huquqiy kafolatlar - organning mustaqilligini ta’minlovchi mexanizmlar (moliyaviy ta’minot , xodimlarning daxlsizligi va h.k.).

Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining o‘rni va ahamiyati ularning huquqiy maqomi bilan belgilanadi. “ Huquqiy maqom” tushunchasi nafaqat organning nomi va tuzilishini, balki uning davlat hokimiyati tizimidagi iyerarxik o‘rnini, vakolatlari doirasini va mustaqillik kafolatlarini ifodalaydi. Professor N.I. Matuzov ta’kidlaganidek, “ davlat organining maqomi — bu uning zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy funksiyalarni amalga oshirish uchun qonun bilan berilgan huquq va majburiyatlarning yig‘indisidir”.[11]

Matuzov yondashuviga ko‘ra, davlat organiga berilgan huquq va majburiyatlar (vakolatlar) o‘z-o‘zida n paydo bo‘lmaydi, balki muayyan “ijtimoiy funksiya” ni bajarishga xizmat qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish organlari uchun bu ijtimoiy funksiya — jamiyatda adolat ustuvorligini ta’minlash va davlat boshqaruvining legitimligini saqlashdir. Demak, ushbu organlarga beriladigan keng vakolatlar (masalan, moliyaviy operatsiyalarni tekshirish yoki manfaatlar to‘qnashuvini monitoring qilish) maqsad emas, balki ijtimoiy illatni jilovlash uchun zarur bo‘lgan huquqiy instrumentdir.

Ta’rifdagi “qonun bilan berilgan ” iborasi korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining maqomi faqatgina ma’muriy hujjatlar bilan emas, balki oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan qonunlar bilan mustahkamlanishi lozimligini anglatadi. Bu xulosa xalqaro standartlardagi (BMT Konvensiyasi) mustaqillik tamoyili bilan hamohangdir. Ya’ni, agar organning huquq va majburiyatlari qonun darajasida aniq belgilanmasa, uning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirishi subyektiv ta’sirlar va siyosiy kon’yunkturaga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Matuzov maqomni “yig‘indi” sifatida ta’riflar ekan , bu yerda huquq va majburiyatlarning muvozanati nazarda tutiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ nafaqat tekshirish va jazolash huquqiga ega bo‘lishi , balki jamiyat oldida hisobdorlik va ochiqlikni ta’minlash majburiyatini ham o‘z zimmasiga olishi shart . Bu esa korrupsiyaga qarshi kurash jarayonining o‘zi korrupsiyadan holi bo‘lishini kafolatlovchi asosiy mexanizmdir.

Ijtimoiy funksiyalar jamiyat rivojlanishi bilan o‘zgarib boradi. Bugungi kunda korrupsiyaning raqamlashishi va transmilliy tus olishi, Matuzov ta’rifidagi “ijtimoiy funksiya”larning kengayishiga olib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida, korrupsiyaga qarshi

[9] Алексеев С. С. Общая теория права. — М.: Статут, 2008. — С. 132.
[10] Абдумажидов Ғ. А. Юридик энциклопедия. — Т.: Шарқ, 2001. — 455-б.
[11] Матузов Н. И., Малько А. В. Теория государства и права: Учебник. — М.: Юристъ, 2004. — С. 115.

kurashish organlarining huquqiy maqomi va vakolatlarini davr talabiga mos ravishda doimiy takomillashtirib borishni nazariy jihatdan asoslaydi.

N.I. Matuzovning qarashlari korrupsiyaga qarshi kurashish organlari maqomini shunchaki davlat idorasi sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini (korrupsiyasiz hayot) bajaruvchi maxsus huquqiy institut sifatida talqin qilishga xizmat qiladi . Organning huquqiy maqomi qanchalik mustahkam va vakolatlari ijtimoiy funksiyasiga mutanosib bo‘lsa , uning faoliyati samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Xorijiy tadqiqotchi R. Pelitsso (Riccardo Pelizzo) fikricha , korrupsiyaga qarshi kurashish organining maqomi “kuchli vakolat va kuchli nazorat” muvozanatiga qurilishi lozim.[12] Agar maqomda faqat jazolash vakolati bo‘lib, mustaqillik kafolatlanmasa, organ siyosiy bosim ostida qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi misolida maqomning o‘ziga xosligi shundaki, u ijroiya hokimiyati tizimiga (Vazirlar Mahkamasiga) kirmaydi. Bu uning eksterritorial va “ekstravedomstvoviy” maqomini ifodalaydi, ya’ni u istalgan vazirlik ustidan nazorat o‘rnatish huquqiga ega.[13]

Korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining huquqiy maqomini belgilovchi xalqaro standartlar orasida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi markaziy o‘rin tutadi. Ushbu Konvensiyaning 6-moddasida ishtirokchi davlatlar korrupsiyaning oldini oluvchi organning mustaqilligini ta’minlashi shartligi belgilangan.[14] Bu borada xorijiy tadqiqotchi Patrik Mexer (Patrick Meagher) shunday yozadi : “ Agar korrupsiyaga qarshi organ ijroiya hokimiyati rahbariga bevosita qaram bo‘lsa , u siyosiy raqiblarga qarshi qurolga aylanib qolishi xavfi yuqori bo‘ladi”.[15] Shu sababli , zamonaviy huquqiy demokratik davlatlarda bunday organlar « ikki yoqlama hisobdorlik » (Prezident va Parlament oldida) tamoyili asosida tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi organlar tizimi mustahkamlangan.[16] Ushbu organlarning huquqiy maqomidagi o‘ziga xoslik shundaki , ular bir-birini takrorlamaydigan , balki to‘ldiruvchi funksiyalarga ega . Masalan , Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi strategiyani belgilovchi va muvofiqlashtiruvchi organ bo‘lsa , Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti operativ-qidiruv va tergov funksiyalarini amalga oshiradi.

Olim K. Kuax (Jon S.T. Quah) korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining funksiyalarini tizimlashtirar ekan , ularni uchta asosiy yo‘nalishga — tergov (investigation), oldini olish (prevention) va ma’rifat (education) yo‘nalishlariga ajratadi.[17] O‘zbekiston tajribasida ushbu funksiyalarning taqsimlanishida “funksional dualizm” kuzatiladi. Ya’ni, Agentlik asosan profilaktika va davlat organlarining ochiqligini ta’minlash bilan shug‘ullansa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatlarni fosh etishga mas’uldir.

---

[12] Pelizzo, R., & Stapenhurst, R. (2012). Parliamentary Oversight Tools: A Comparative Analysis. Routledge. — P. 88.

[13] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. «Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида». 2020 йил 29 июнь, ПФ-6013-сон.

[14] БМТнинг Коррупцияга қарши конвенцияси. 2003 йил 31 октябрь. — 6-модда.

[15] Meagher, P. (2005). Anti-corruption agencies: Rhetoric Versus Reality. The Journal of Policy Reform. — P. 69-103.

[16] Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида». 03.01.2017 йилдаги ЎРҚ-419-сон.

[17] Quah, J. S. T. (2011). Curbing Corruption in Asian Countries: An Impossible Dream? Emerald Group Publishing. — P. 142.

Mahalliy olim B. Ismoilovning fikricha, “samarali institutsional model — bu nafaqat ko‘plab organlarning mavjudligi, balki ularning vakolatlari kesishmasligini ta’minlovchi aniq huquqiy demarkatsiyadir”.[18] Bugungi kunda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining maqomi nafaqat jinoiy-huquqiy ta’sir choralari, balki “komplayens-nazorat” va “reyting baholash” kabi zamonaviy ma’muriy-huquqiy instrumentlar bilan ham boyitilgan.

Xalqaro huquqda korrupsiyaga qarshi organlar maqomining eng muhim elementi — bu mustaqillikdir . Bu borada Jakarta tamoyillari (Jakarta Statement on Principles for Anti- Corruption Agencies, 2012) muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatga ko‘ra, organ rahbarini tayinlash va lavozimidan ozod etish jarayoni shaffof bo‘lishi , organ o‘z budjetiga ega bo‘lishi va xodimlari huquqiy himoya qilinishi kerak . Tadqiqotchi Patrik Mexerning yuqoridagi fikridan kelib chiqadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda Agentlikning Prezidentga bo‘ysunishi va Parlamentga hisobdorligi “ikki yoqlama tiyib turish” mexanizmi sifatida organning xolisligini ta’minlaydi.

XULOSA

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining nazariy-huquqiy va institutsional asoslarini kompleks tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, korrupsiya tushunchasining ontologik tabiati shuni ko‘rsatadiki,u nafaqat alohida shaxslarning huquqbuzarligi, balki davlat boshqaruvi mexanizmidagi "tizimli xatolik" (systemic failure) natijasidir. S.Xantington yondashuvi asosida korrupsiyani ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya davridagi nomutanosiblik sifatida talqin qilish, unga qarshi kurashda faqat repressiv apparatdan foydalanish samarali emasligini isbotlaydi. Buning o‘rniga, siyosiy institutlarning ijtimoiy ehtiyojlarga moslashish qobiliyatini oshirish va huquqiy nigilizmga chek qo‘yish strategik ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, Robert Klitgaardning institutsional formulasi ($S=M+D-A$) tadqiqotning metodologik asosi sifatida korrupsiyaga qarshi kurashning uchta asosiy yo‘nalishini belgilab beradi:

- Monopoliyani (M) parchalash: Davlat xizmatlari ko‘rsatishda raqobat muhitini yaratish va funksiyalarni markazsizlashtirish;
- Diskretsion vakolatlarni (D) minimallashtirish: Mansabdor shaxslarning o‘z xohishiga ko‘ra qaror qabul qilish doirasini qat’iy huquqiy algoritmlar va raqamlashtirish orqali cheklash;
- Hisobdorlikni (A) institutsionalizatsiya qilish: Davlat apparati ustidan ham vertikal (ierarxik), ham gorizontal (jamoatchilik va parlament) nazorat tizimini barpo etish.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning "Universal modeli" tanlanganligi xalqaro standartlarga, xususan, Jakarta tamoyillariga to‘liq mos keladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "ekstravedomstvoviy" maqomi va uning bevosita davlat rahbari hamda parlament oldidagi mas’ulligi, organning siyosiy kon’yunktura va idoraviy manfaatlardan xoli bo‘lishini ta’minlovchi asosiy huquqiy kafolatdir. Bu model preventiv (oldini olish) va nazorat funksiyalarining bitta markazda muvofiqlashtirilishi orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, zamonaviy huquqiy doktrinada korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining huquqiy maqomi ularning "ijtimoiy funksiyasi" bilan bog‘liq holda kengayib bormoqda. N.I. Matuzov konsepsiyasi doirasida tahlil qilinganda, ushbu organlarning vakolatlari shunchaki ma’muriy bosim vositasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy adolatga bo‘lgan huquqini himoya qiluvchi mexanizmdir. Shu munosabat bilan, "Komplayens-nazorat" (compliance control) tizimini davlat idoralarida joriy etish, korrupsion xavf-

[18] Исмоилов Б. Коррупцияга қарши курашишнинг институционал-ҳуқуқий асослари: Монография. — Т.: Юридик адабиётлар, 2020. — 88-б.

xatarlarni (corruption risks) ichki diagnostika qilish va ularni barvaqt bartaraf etishning huquqiy filtri sifatida baholanadi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligi jazo muqarrarligi bilan bir qatorda, "korrupsiyaviy imkoniyatlar"ning yo‘qligi bilan belgilanadi. Binobarin, istiqbolda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim:

1. Davlat xizmatchilarining daromadlari va xarajatlarini deklaratsiya qilish tizimini to‘liq amaliyotga tatbiq etish orqali moliyaviy shaffoflikni ta’minlash;

2. "Manfaatlar to‘qnashuvi" (conflict of interest) to‘g‘risidagi qonunchilikni ijro etishning protsessual mexanizmlarini qat’iylashtirish;

3. Fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi ekspertiza va monitoring jarayonlaridagi ishtirokini "hamkorlik" darajasidan "tizimli nazorat" darajasiga ko‘tarish.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining nazariy-huquqiy asoslari — bu faqatgina qonun normalari yig‘indisi emas, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni tiklashga qaratilgan fundamental huquqiy strategiyadir. Ushbu tizimning barqarorligi esa siyosiy iroda, huquqiy madaniyat va institutsional mustaqillikning uyg‘unligiga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017-yil 1-iyul,№1
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”qonuni, // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Birlashgan millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (nyu-york, 2003 yil 31 oktyabr) o‘zbekiston respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”qonuni, 19.07.2008 https://lex.uz/docs/-1369505.
5. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 01.04.1995, https://lex.uz/docs/-111453.
6. A.Sh. Bekmurodov ” Korrupsiyaga qarshi kurash “darslik https://drive.google.com/file/d/1-OeJlXvtRaQdLRAjyIAqxWlfaEHah9PW/view.
7. BMT ning Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi, 2003,31,10
8. https://lex.uz/docs/-1461329.